

TEXNIK FANLARNI O'QITISHDA INTER FAOL METODLARNING ROLI

Shamonov Bekzod Shokirjonoich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi sikl boshlig'i

Annotatsiya. *Maqloa kursantlarga texnik tayyorgarlik fanini o'qitishda murakkab bo'lgan mavzularni ortiqcha aqliy zo'riqishlarsiz o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada tuzilishi va foydalanishi murakkab bo'lgan harbiy texnikalarni o'rganishda interfaol metodlarining salmoqli o'rni asoslab berilgan.*

Tayanch so'zlar: *interfaol, metod, tuzilish, foydalanish, o'qitish, tayyorgarlik, tarbiya, tizim.*

Аннотация. *Статья посвящена обучению сложных тем при преподавании дисциплины техническая подготовка курсантов без их чрезмерного умственного напряжения. В статье обоснована важная роль интерактивных методов при изучении военной техники сложной конструкции и эксплуатации.*

Ключевые слова: *интерактив, метод, конструкция, эксплуатация, обучения, подготовка, воспитания, система.*

Kirish. Harbiy bilimni egallashga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni kursantlarga yetkazib berish asosida ma'lum malakalarni shakllantirish, harakatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda Respublikamizning oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir salmoqli ishlar qilinayotgani barchamizga ma'lum [3].

Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchilar tomonidan interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratmoqda. An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi,

ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzda o'quvchi (talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, kursant (tinglovchi)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir. An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "yetkazib beruvchi" rovida endi o'qituvchi emas, balki kursant (tinglovchi) namoyon bo'ladi. Kursant (tinglovchi), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Kursant (tinglovchi)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda kursant (tinglovchi) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi kursantlar (tinglovchilar) guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi.

Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10%; ma'lumotni eshitganida 20%; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30%; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50%; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80%; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90% hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega[4].

Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, kursant va kursantlar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – kursant – kursantlar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab – quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi

Xususan, interfaol metodlardan foydalanish, ularni texnik tayyorgarlik mavzulariga moslashtirish harbiy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam berishi mumkin. Aynan, mualliflarning "interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi" nomli metodik qo'llanmasida keltirilgan "JADVAL" grafik organayzeri kursant (tinglovchi)larda o'rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Uni qo'llashda kursant (tinglovchi)lar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og'zaki bayon yoki yozma matn ko'rinishida emas, balki asosiy g'oya, tayanch tushuncha,

muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Mashg'ulotda grafik organayzerni qo'llash bo'yicha kursant (tinglovchi)larga quyidagi jadval namunasini taqdim etish mumkin:

Mohiyati	Ijtimoiy tarbiya turlari				
	Ma'naviy	Aqliy	Jismoniy	Estetik	Mehnat
Maqsadi					
Vazifalari					
Jihatlari					

“JADVAL” grafik organayzeri yordamida zirhli texnikalarda texnik xizmat ko'rsatish turlarining yoritilishi

BMP-2 TXK turlari mohiyati	(TXK) Texnik xizmat ko'rsatish turlari				
	NK	KTXK	1-TXK	2-TXK	MTXK
Maqsadi	Mashinani texnik jihatdan sozligini tekshirish va harakatga tayyorlash	Mashinani texnik jihatdan sozligini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va keyingi foydalanishga tayyorlash	Mashinani texnik jihatdan sozligi va jangovar shayligini navbatdagi texnik xizmat ko'rsatishga qadar ushlab turish	Mashinani texnik jihatdan sozligi va jangovar shayligini navbatdagi texnik xizmat ko'rsatishga qadar ushlab turish	Mashinani mavsumiy foydalanishga tayyorlash
Davri	Parkdan chiqishdan oldin va qisqa to'xtash joylarida	Mashina parkka qaytgach qancha masofa bosib o'tganidan qat'iy nazar	2500-2600 km masofa bosib o'tgach	4800-5000 km masofa bosib o'tgach	Qishdan yozga, yozdan qishga mavsumiga o'tishdan oldin
Vahti	<u>15-20</u> 10-12	2,5-3,0 soat	5,5-6,0 soat	7,5-8,0 soat	2 yoki 3 hafta ish kuni (MV buyrug'iga asosan)

Topshiriq yechimi (BMP-2 namuna)

Xulosa. Tezida ko'rsatib o'tilganidek, har bir interfaol metodi ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi (pedagog) va ta'lim oluvchi (o'quvchi, kursant)lar, o'quvchi (kursant) va o'quvchi (kursant)lar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, kursant)ning ichki

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, harbiy sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Психолого-педагогическое сопровождение реализации инновационных образовательных программ / Под ред. Ю.П.Зинченко, И.А.Володарской. – Москва: Изд-во МГУ, 2007. – 120 с.
2. Ступина С.Б. Технологии интерактивного обучения в высшей школе / Учебно-метод. пособие. – Саратов: Издателский центр “Наука”, 2009. – 52 с.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // “Maktab va hayot” jurnaliga ilova. – Toshkent: O'zPFITI, 2003. – 32 b.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan”, 2005. – 205 b.
6. Piyodalar jangovar mashinasi BMP-2. Texnik tavsifi va foydalanish yo'riqnomasi. 2-qism, T.: O'RMV, 2014 y.